

**SURXON-SHEROBOD BOTANIK-GEOGRAFIK RAYYONI FLORASIDAGI ENDEMIK  
TURLAR TAKSONOMIK TARKIBI VA KONSPEKTI**


**ТАКСОНОМИЧЕСКИЙ СОСТАВ И ОПИСАНИЕ ВИДОВ ЕНДЕМИЧНЫЕ  
РАСПРОСТРАНЕННЫХ ВО ФЛОРЕ СШБГР**

**TAXONOMIC COMPOSITION AND SYNOPSIS OF ENDEMIC SPECIES DISTRIBUTED IN  
THE FLORA OF SSHBGR**

**Nurmatov Ro'imuhammad Tojimurodovich**

*Termez State University. Master's student. Termez, Uzbekistan*

So'nggi yillarda ma'lum tabiiy hududlar, floralar uchun endem bo'lgan turlar ustida tadqiqotlar ko'lami ortib bormoqda, oila yoki ma'lum bir endemizm fraksiyalari tur tarkibi [1.], ularni muhofaza qilishga qaratilgan hamda shu kabi keng ko'lamli tahlillarga bag'ishlangan. Hozirga qadar olib borilgan dala tadqiqotlar hamda mavjud adabiyot ma'lumotlariga ko'ra, SSHBGR florasida 9 oila, 11 turkumga mansub 13 tur endem, 10 oila, 12 turkumga mansub 15 tur subendem ekanligi ma'lum bo'ldi[7].



**Surxon-Sherobod botanik-geografik rayoni joylagan o'rni va uning chegaralari.**

Endem turlarning yana bir o'ziga xos xususiyatlaridan biri mintaqani chegarasini belgilashda asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Surxon-Sherobod botanik-geografik rayoni bilan Boysun botanik-geografik rayonining janubiy tog' oldi hududlari orasidagi chegaralarni aniqlash floralarning o'hshashligi tufayli biroz chalkash. Bu yerda Janubiy g'arbiy Pomir-Oloyning turlari, Surxon-Sherobod rayonining endem yoki subendem turlari tarqalgan (*Allium nikolai*, *Chrozophora cordifolia*, *Plocama alshehbazii*, *Plocama botschantzevii*) muxim ahamiyat kasb etadi[7] Surxon-Sherobod botanik-geografik rayoni ma'muriy jihatdan Surkhondaryo viloyatining Termiz, Sherobod, Qumqo'rg'on, Shurchi Jarqo'rg'on, Denov, Oltinsoy va Sariosiyo tumanlari hududiga to'g'ri keladi. Geografik jihatdan Boysun, Bobotog' va Ko'hitang tog'lari hamda Amudaryo oralig'ida joylashgan, asosan olajinsli, kulrang qizil va qumli tuproqlardan tashkil topgan past tekisliklardan iborat. Mazkur mintaqa O'zbekistoni botanik-geografik rayonlashtirish sxemasida, G'arbiy

Hisor okrugi tarkibidagi alohida botanik-geografik rayon sifatida ajratilgan. Hudud shimoli-sharqdan Surxon daryosi havzasi orqali Amudaryogacha Panjoldi okrugining Bobotog' botanik-geografik rayoni bilan, shimoli-g'arbdan Sangradak va Tupalang daryolarining tekislik mintaqasi hududlari, Sariosiyo tumanidagi Dashnobod, Boyqishloq, Sharg'un qishloqlari orqali Sangardak-Tupalang botanik-geografik rayoni bilan, Shimoli-g'arbdan Boysun-Denov avtomobil yo'lining o'ng tomonidagi past tog'lar, tog' oldi hududlari orqali Boysun botanik-geografik rayoni bilan, g'arbdan Maydon, Pashhurt, Oqtosh qishloqlariga olib boruvchi 4R111 avtomobil yo'lining chap tomonidagi past tekisliklari orqali Ko'hitang botanik-geografik rayoni bilan, janubdan Amudaryo orqali Afg'oniston va Turkmaniston bilan chegaralanadi.

### TADQIQOT METODLARI

SShBGR florasida tarqalgan *Allium* turkumining taksonomik tarkibini aniqlashda "Флора Узбекистана" (Sennikov 2017) monografiyasidan, turlarning nomlarini yozishda Plants of the World Online (POWO) ([www.powo.science.kew.org](http://www.powo.science.kew.org)) platformasidan, turlarning dastlabki tavsifi chop etilgan manbasi International Plant Names Index (IPNI) ([www.ipni.org](http://www.ipni.org)) asosida, balandlik mintaqasi va ekologiyasi "Определителя растений Средней Азии" (Vvedenskiy 1971) hamda turlarning ahamiyati "Растительные ресурсы" monografiyalaridan foydalangan holda taqdim etildi.

Quyida har bir turning sistematikasi, dastlabki tavsifi chop etilgan manbasi, o'zbekcha nomi, uchrash balandlik mintaqasi, ekologiyasi, ahamiyati, davlatlar kesimida tarqalishi va SShBGR florasidan terilgan hamda TASH fondida saqlanayotgan gerbariy namunalari keltirilgan.

Quyida endem turlarni tarqalgan maydonlari va tur to'g'risida qisqacha ma'lumotlar keltirilgan.

*Climacoptera oxyphylla* U.P.Pratov. O'zbekistonda florasida *Climacoptera* 20 turi tarqalgan bo'lib, shulardan, shundan 5 turi O'zbekiston endemi hisoblanadi. Mazkur endemlardan biri tadqiqot hududida 78 tarqalgan. Mazkur tur Sherobod vodiysi Maydon qishlog'i atrofida, olajinsli tuproqlarda uchraydi. Turning ilk gerbariy namunalari 1985 yilda V.P. Bochansev va U.P. Pratovlar tomonidan Surxon-Sherobod vodiysida olib borilgan tadqiqotlarida terilgan: Yujniy Uzbekistan, Sherabadsкая dolina, okr. pos. Maydan. Pestrotsveti. 16.07.1985, Bochansev, Pratov. 1986 yilda U. Pratov mazkur namunalardan foydalangan holda yangi tur sifatida fanga kiritgan[2].

*Iris rudolphii* F.O.Khass., Esankulov & Achilova = *Juno rudolphii* F.O. Khass.et al. dengiz sathidan 560 m balandlikda, qizil tusli tuproqlardan terildi va terilgan namunalar asosida yangi tur sifatida fanga kiritildi. "Kelif-Sherobod range; nearby village Aktash, red sands[2]; N37 32 075, E66 42 11 66; 560 m.s.l.";(Holotype: TASH).

*Allium rhodanthum* Vved. Mazkur tur avtori tomonidan terilgan namunalar "Xaudak-tau. Skreplenniye peski ( Carex physodes). 13.05.1937, №21, Vvedenskiy" asosida 1941 yilda fanga kiritilgan. Keyinchalik mazkur shu hududdan yana terilgan "Yugo-zapadnyy Pamiro-alay. Shirabadsкая dolina. Xaudaktau. Zakreplenniye peski v 8 km k YUYUZ ot k/k

Ashir-esan-kuduk 1940, №4 Arxireyev". 2019 yil olib borilgan dala tadqiqotlarida Xaudak tog' atrofidagi qabristonda turning kichik populyatsiyasi mavjudligi aniqlandi. Turning piyozlaridan Botanika bog'ining "Allium garden" bo'limiga *ex-situ* usulda saqlab qolish amaliyoti joriylashtirildi. Adabiyotlarda keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, 1940 yildan keyin tur ustida olib borilgan izlanishlar natijasiz yakunlangan[1].

*Dipcadi turkestanicum* Vved. A.I. Vvedenskiy 1927 yilda Surxon-Sherobodning Xaudak tog'i atroflaridagi qumliklarida olib borgan dala tadqiqotlarida topadi va yangi tur sifatida fanga kiritgan: "Shirabadskaya ekspeditsiY. Shirabadskaya ekspeditsiY. Shirabadskaya dolina. Xaudak-tau; peski. 03.06.1927. n°188. Vvedenskiy, "Xaudak-tau. Barxanniye vsxolmleniY. 13.05.1927, n°22[7], Vvedenskiy". Keyinchalik A.I. Vvedenskiy boshchiligida

tadqiqotlar yana turning gerbariy namunalari yig'ilgan: "Surxan-Darinskaya obl. pos. Xaudak. Barxani i kotlovini viduvaniY. 16.04.1958, n°233, Vvedenskiy, Kovalevskaya, Cherneva". 2019-2020 yillar davomida Xaudak tog'i atrofidagi qumliklarda olib borgan dala tadqiqotlarimizda mazkur tur topilmadi. Xaudak tog'i atrofidagi qumliklarda chorva mollarining, ayniqsa, bahor oylarida betartib boqilishi, neft quduqlarining kovlanishi hamda va qurilish xom ashyosi sifatida kumliklarning kovlanishi natijasida hududga antropogen omilining ta'sir ko'lamini ortib ketgan, natijada tur umuman yo'q bo'lib ketgan bo'lishi ham mumkin. Hozir kunda O'zbekiston Milliy Gerbariy (TASH) fondida faqatgina 1927 va 1958 yillarda terilgan ikkita namunasi saqlanmoqda. Tasdiqlanmagan ma'lumotlarga ko'ra, tur yo'q bo'lish arafasida.

*Plocama alshehbazii* F.O. Khass., D. Khamr., U. Khuzh. & Achilova 2013 yilda olib borgan izlanishlarda aniqlanilgan: Kelif-Sherobod tizmasi; 25 km sharqda , kulrang gil tuproq; N38 04 50 89, E67 26 26 77. (Type TASH, isotype MBG). Mazkur tur sistematik jihatdan, *Plocama bucharica* hamda *Plocama mestscherjakovii* turlariga yaqin. *Plocama bucharica* turidan gullarining rangi, changchilarining hamda barglarning tuzilishi bilan farqlansa[2], *Plocama mestscherjakovii* turidan gulining rangi, barglarining uzunligi va joylashishiga ko'ra farqlanadi.

Navbatdagi tur *Iris victoris* F.O.Khass., Khuzhan. & Rakhimova = *Juno victoris* F.O.Khass.et al. dengiz sathidan 560 m balandlikda, kulrang soz tuproqlarda terildi va yangi tur sifatida fanga kiritildi. Uzbekistan, Kelif-Sherobod tizmasi; Aktash qishlog'i yaqinidan bo'z gil tuproq; N 37 33 08 01, E 66 41 29 44. 2.03.2013. F.O.Khassanov, U.Khuzhanazarov & N. Achilova (Holotype TASH). Mazkur tur *Iris narbutii* O.Fedtsch. turiga yaqin bo'lib, gullari hamda barglarining tuzilishi bilan farqlanadi [7]. Chorva mollarining tartibsiz boqilishi oqibatida ushbu turlar sonining kamayishiga olib kelmoqda.

*Phlomoides baburii* (Adylov) Adylov Mazkur tur M.M. Nabiyev, G'.Shermatov, R.Kazakbayevlar tomonidan terilgan namunalarga asosida "Y.V. predgorya xr. Kugitang. G. Aktash v 7 km na yug ot sel. Aktash. Vdol dorogi Aktash-Sherabad, pestrotsvetniye porodi. 6.07.1972, №291 Nabiyev, Shermatov, Kazakbayev" T.A. Adilov tomonidan fanga kiritilgan. Undan tashqari mazkur tur F.O.Xasanov va R.V. Kamelin tomonidan ham terilgan (Yujn. Pamiro-alay, xr. Kugitang 8 km yujn.pos. Aktash, pestrotsveti. Kamelin, Xasanov. 1989 yil,

297). 2020 yilda olib borgan izlanishlarimizda mazkur tur Oqtosh qishlog'i atrofidagi olajinsli yonbag'irliklardan terildi: "Surxan-Sherabad, okr. kishlaka Aktash, 21.03.2020, Achilova."

1. "Flora Uzbekistanika" (Sennikov 2017).

2. "Opredelitel'ya rasteniy Sredney Azii" (Vvedenskiy 1971).

3. Azimova D.E. Molguzar tizmasi florasini: dis. ...kand biol. nauk. – Toshkent, 2018. – 90.

b.

4. Turginov O.T. Boysun botanik-geografik rayoni florasini: Dis. ...kand biol. nauk. – Toshkent, 2017. – 120 b.

5. Ibragimov A.J. Flora Surxanskogo zapovednika (xrebet Kugitang):. Diss. kand. biol. nauk. – Tashkent: 2010. – 160 b.

6. Qodirov U.H. Urgut botanik-geografik rayoni florasini Avtoref. Diss...PhD doktor – Toshkent 2020.

7. Achilova N.T. Surxon-sherobod botanik-geografik rayoni florasini Diss. kand. biol. nauk. Qarshi – 2021